O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK EMOTSIONAL BIRLIKLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI VA ULARNI BADIIY TARJIMADA UZATISH STRATEGIYALARI

Z.D.Ruzmetova[1]

1. G‘arb tillari va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi Ma’mun universiteti Elektron pochta: ruzmetova_zilola@mamunedu.uz

Mas'ul muallif: Ruzmetova Zilolaxon Dilmurodovna, G‘arb tillari va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi Ma’mun universiteti Elektron pochta: ruzmetova_zilola@mamunedu.uz.

e-mail: ruzmetova_zilola@mamunedu.uz

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Ruzmetova, Z. D. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SOMATIK EMOTSIONAL BIRLIKLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI VA ULARNI BADIIY TARJIMADA UZATISH STRATEGIYALARI / Z. D. Ruzmetova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — Т. 11, № 2. — B. 227–230.

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va ingliz tillarida tana a'zolari nomlari asosida shakllangan emotsional-ekspressiv birliklar (somatik emotsional metaforalar) kognitiv-chog'ishtirma aspektda tahlil qilinadi. Yurak, bag'ir, o'pka, ich-et va ko'ngil komponentli birliklarning konseptual asoslari, sema tarkibi va emotsional intensivligi ingliz tilidagi muqobillari bilan qiyoslanadi. Tahlil natijasida o'zbek tilida emotsiyalarning bir necha ichki a'zo bo'ylab "taqsimlangan" somatik modeli, ingliz tilida esa heart atrofida markazlashgan va ko'proq bevosita psixologik nomlashga tayanuvchi modeli mavjudligi asoslanadi. Badiiy tarjimada ushbu birliklarni uzatishda adaptatsiya, modulyatsiya, kompensatsiya va pragmatik ekvivalentlik strategiyalarining qo'llanish shartlari belgilab beriladi hamda tarjimada yo'qoladigan komponentlarning tipologiyasi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: somatik metafora, emotsional-ekspressiv birlik, konseptual metafora, chog'ishtirma tahlil, emotsional dominant, badiiy tarjima, modulyatsiya, kompensatsiya, pragmatik ekvivalentlik.

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ И СТРАТЕГИИ ИХ ПЕРЕДАЧИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. В статье в когнитивно-сопоставительном аспекте анализируются эмоционально-экспрессивные единицы узбекского и английского языков, образованные на основе названий частей тела (соматические эмоциональные метафоры). Концептуальные основы, семный состав и эмоциональная интенсивность единиц с компонентами yurak, bag'ir, o'pka, ich-et и ko'ngil сопоставляются с их английскими соответствиями. Обосновывается, что в узбекском языке существует «распределённая» соматическая модель эмоций, тогда как в английском – модель, центрированная вокруг heart и опирающаяся на прямую психологическую номинацию. Определяются условия применения стратегий адаптации, модуляции, компенсации и прагматической эквивалентности и предлагается типология компонентов, утрачиваемых при переводе.

Ключевые слова: соматическая метафора, эмоционально-экспрессивная единица, концептуальная метафора, сопоставительный анализ, эмоциональная доминанта, художественный перевод, модуляция, компенсация, прагматическая эквивалентность.

A CONTRASTIVE ANALYSIS OF SOMATIC EMOTIONAL UNITS IN UZBEK AND ENGLISH AND STRATEGIES FOR THEIR TRANSLATION IN LITERARY TEXTS

Abstract. The article offers a cognitive-contrastive analysis of Uzbek and English emotional-expressive units based on body-part terms (somatic emotion metaphors). The conceptual grounding, semantic structure and emotional intensity of Uzbek units built on yurak (heart), bag'ir (liver/breast), o'pka (lungs), ich-et (innards) and ko'ngil (inner self) are compared with their English counterparts. The analysis shows that Uzbek relies on a "distributed" somatic model in which emotions are located in several internal organs, whereas English favours a model centred on heart and on direct psychological naming. The conditions for applying adaptation, modulation, compensation and pragmatic equivalence in literary translation are specified, and a typology of components lost in translation is proposed.

Keywords: somatic metaphor, emotional-expressive unit, conceptual metaphor, contrastive analysis, emotional dominant, literary translation, modulation, compensation, pragmatic equivalence.

Kirish. Zamonaviy chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikda emotsiyalarning tilda ifodalanishi antropotsentrik paradigmaning markaziy masalalaridan biriga aylandi. Kognitiv tilshunoslik vakillari abstrakt hissiy holatlar inson tomonidan, avvalo, jismoniy tajriba orqali konseptuallashtirilishini ko'rsatdi [8; 7]. Bu jarayonda inson tanasi va uning a'zolari emotsiyani "joylashtirish" va tasvirlashning eng tabiiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shu sababli tana a'zolari nomlari asosida shakllangan somatik emotsional birliklar har bir tilning emotsional tafakkur modelini eng yaqqol aks ettiruvchi qatlam hisoblanadi.

O'zbek badiiy nutqida bag'ri kuydi, yuragi muzlab ketdi, o'pkasi to'lib ketdi, ich-etini yeb tugatdi, ko'ngli cho'kdi kabi birliklar personaj ruhiyatini ochishning asosiy vositalaridan biridir. Ingliz tilida esa heartbroken, heavy-hearted, his heart sank kabi birliklar bilan bir qatorda devastated, petrified, overcome with emotion kabi bevosita psixologik nomlovchi birliklar faol qo'llanadi. Ikki til o'rtasidagi bu farq o'zbek badiiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda tizimli muammolarni yuzaga keltiradi: so'zma-so'z tarjima ingliz o'quvchisi uchun sun'iy yoki hatto noto'g'ri (masalan, jismoniy holat sifatida) tushuniladi, umumlashtiruvchi tarjima esa asliyatning obrazliligi va emotsional intensivligini yo'qotadi.

Muallifning "Badiiy matn tarjimasida emotsional-ekspressiv birliklarni uzatish metodikasi (o'zbek–ingliz tillari qiyosida)" o'quv-uslubiy qo'llanmasida [18] emotsional-ekspressiv birliklarning metaforik, idiomatik, interjektsiya va baholovchi leksika guruhlari ajratilib, ularni uzatishning pedagogik tizimi ishlab chiqilgan edi. Mazkur maqolada shu materialning eng murakkab qatlami - somatik emotsional birliklar alohida chog'ishtirma-tarjimashunoslik tahlili ob'ekti sifatida olinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tadqiqotning nazariy asosini uch yo'nalish tashkil etadi.

Kognitiv-lingvistik yo'nalish. G. Lakoff va M. Jonson konseptual metafora nazariyasida abstrakt sohaning (masalan, QAYG'U) aniq jismoniy soha (OG'IRLIK, PASTGA HARAKAT) orqali tushunilishini asoslagan [8]. Z. Kyovechesh emotsiya metaforalari universal tana tajribasiga tayansa-da, har bir madaniyatda o'ziga xos "tanlab olish" va kengaytirish yo'li bilan milliy variantlarga ega bo'lishini ko'rsatgan [7; 4]. F. Sharifian va hammualliflari tomonidan nashr etilgan jamoaviy monografiyada turli tillarda emotsiyalar yurak, jigar, qorin kabi turli ichki a'zolarga "joylashtirilishi" madaniy konseptualizatsiya hodisasi sifatida tadqiq etilgan [10]. Bu kuzatish o'zbek tilidagi bag'ir va ich-et komponentli birliklarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Madaniy semantika va psixolingvistika. A. Vejbitskaya emotsiyalar universal bo'lgani holda ularni nomlovchi til birliklari madaniy jihatdan xos ekanini isbotlagan [12]. Psixolingvistik tadqiqotlar emotsiya tushunchalari prototip asosida tashkil topishini [2] hamda emotsiyalar ma'noni qabul qilishda kontekst va obrazga tayanilishini [9] ko'rsatadi. R. Jakobson tilning emotiv funksiyasini xabar yuboruvchining munosabatini ifodalash vazifasi sifatida ajratgan [3]. O'zbek tilshunosligida emotsional birliklarning pragmatik va kognitiv jihatlari Sh. Safarov ishlarida yoritilgan [15; 16].

Tarjimashunoslik yo'nalishi. Y. Nayda dinamik (pragmatik) ekvivalentlik tushunchasini [6], P. Nyumark metaforalarni tarjima qilish usullari tasnifini [5], M. Beyker so'z va idioma darajasidagi noekvivalentlik hamda kompensatsiya strategiyalarini [1], J.-P. Vine va J. Darbelne esa modulyatsiya va adaptatsiya usullarini [11] ishlab chiqqan. Tarjima sifatini baholashda J. Xauzning funksional-pragmatik modeli [14] hisobga olindi.

Natijalar va muhokama

1. Ikki tildagi somatik emotsional modellar

Tahlil ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillarida emotsiyalarni tana orqali konseptuallashtirish ikki xil modelga asoslanadi.

O'zbek tilida - "taqsimlangan" somatik model. Emotsiyalar bir nechta ichki a'zo bo'ylab "joylashtiriladi" va har bir a'zo ma'lum emotsional sohaga ixtisoslashadi:

yurak - qo'rquv, hayajon, sevgi (yuragi muzlab ketdi, yuragi orqasiga tortdi, yuragi gupirdi);

bag'ir - chuqur achinish, iztirob, mehr (bag'ri kuydi, bag'ri ezildi, bag'riga bosdi);

o'pka - to'lib-toshgan, yig'iga yaqin holat yoki ranjish (o'pkasi to'lib ketdi, o'pkalamoq);

ich-et - ichki, tashqariga chiqarilmagan azob (ich-etini yeb tugatdi, ichi kuydi);

ko'ngil - umumiy ruhiy holat (ko'ngli cho'kdi, ko'ngli tog'dek ko'tarildi, ko'ngli vayron bo'ldi).

Bu yerda ko'ngil alohida maqomga ega: u anatomik a'zo emas, balki "ichki men"ni anglatuvchi kvazisomatik birlikdir, biroq tilda xuddi a'zo kabi fazoviy xususiyatlarga ega - u "cho'kadi", "ko'tariladi", "vayron bo'ladi". Mazkur model F. Sharifian va hammualliflari tomonidan turli Sharq tillarida qayd etilgan emotsiyalarni ichki a'zolarga joylashtirish an'anasiga mos keladi [10].

Ingliz tilida - markazlashgan va psixologik nomlovchi model. Somatik emotsional birliklar asosan heart atrofida to'plangan (heartbroken, heavy-hearted, lighthearted, his heart sank); boshqa a'zolar (gut, stomach) cheklangan va ko'proq intuitsiya yoki jirkanish bilan bog'liq. Kuchli emotsional holat ko'pincha bevosita psixologik leksema (devastated, petrified, terrified) yoki kuchaytiruvchi vosita (deeply, utterly, overcome with) orqali ifodalanadi [18].

Shu bilan birga, ikki til bir qator universal konseptual metaforalarga tayanadi: QAYG'U - OG'IRLIK (ko'ngli og'irlashdi / a heavy heart), QUVONCH - YUQORIGA HARAKAT (ko'ngli ko'tarildi / his spirits lifted), G'AZAB - OLOV (ichi yondi / burning with anger), UYAT - YO'QOLISH (yer yutguday bo'ldi / wanted the ground to swallow her) [7; 18]. Demak, farq konseptual metaforaning o'zida emas, balki uning qaysi tana a'zosi orqali va qay darajadagi obrazlilik bilan voqelanishidadir.

2. Sema tarkibi va emotsional intensivlik qiyosi

Komponent tahlili o'zbek somatik birliklari ko'pincha bir nechta emotsional semani birlashtirishini, ingliz muqobillari esa ulardan bir qismini aks ettirishini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbek somatik emotsional birliklarining sema tarkibi va ingliz muqobillari

O'zbek birligi	Konseptual asos	Asosiy semalar	Ingliz muqobili	Tarjimada yo'qoladigan komponent
bag'ri kuydi	QAYG'U - ICHKI OLOV	iztirob, achinish, chuqur kuyinish	she was heartbroken / her heart ached deeply	"yonish" obrazi; bag'ir bilan bog'liq mehr semasi
yuragi muzlab ketdi	QO'RQUV - SOVUQ	to'satdan qo'rquv, shok	he froze with fear / he was petrified	somatik lokalizatsiya (yurak)
o'pkasi to'lib ketdi	EMOTSIYA - IDISHDAGI SUYUQLIK	to'lib-toshish, yig'iga yaqinlik, ranjish	he choked up / he was overcome with emotion	o'pka bilan bog'liq milliy sema; ranjish komponenti
ich-etini yeb tugatdi	QAYG'U - ICHDAN YEYUVCHI KUCH	uzoq davom etgan, yashirin azob	he was eaten up inside / consumed with grief	"o'z-o'zini yeyish"ning davomiylik va yashirinlik semasi qisman saqlanadi
ko'ngli cho'kdi	QAYG'U - PASTGA HARAKAT	tushkunlik, umidsizlik	his spirits sank / his heart sank	deyarli to'liq saqlanadi (universal metafora)
ko'ngli vayron bo'ldi	RUHIYAT - BINO	ichki yemirilish, chuqur tushkunlik	he was emotionally devastated	"vayron bo'lish" arxitekturaviy obrazi

Jadvaldan ko'rinadiki, tarjimada yo'qotish darajasi birlikning konseptual asosi universal yoki milliy ekanligiga bog'liq: universal metaforaga tayanuvchi ko'ngli cho'kdi ingliz tilida deyarli yo'qotishsiz beriladi, milliy-somatik lokalizatsiyaga ega o'pkasi to'lib ketdi esa eng ko'p komponent yo'qotadi.

3. Tarjimada yo'qoladigan komponentlar tipologiyasi

Qiyosiy material asosida somatik emotsional birliklarni tarjima qilishda yo'qolishi mumkin bo'lgan to'rt turdagi komponent ajratildi:

Obraz-somatik komponent - emotsiyaning ma'lum a'zoga joylashtirilishi (bag'ir, o'pka). Ingliz tilida ushbu a'zolar emotsional assotsiatsiyaga ega emas; so'zma-so'z tarjima (her chest burned, his lungs filled up) o'quvchida jismoniy holat yoki kasallik taassurotini uyg'otadi [18].

Dinamik komponent - emotsiyaning harakat yoki o'zgarish sifatida tasvirlanishi (cho'kdi, orqasiga tortdi, muzlab ketdi). U ko'pincha ingliz tilidagi o'xshash harakat metaforasi (sank, froze) orqali saqlanadi.

Emotsional-intensivlik komponenti - holatning kuchi. Umumlashtiruvchi tarjima (bag'ri kuydi → she was sad) intensivlikni keskin pasaytiradi; bu eng jiddiy pragmatik xato hisoblanadi.

Madaniy-assotsiativ komponent - birlikning milliy kolorit va an'anaviy poetik nutq bilan bog'liqligi. Bu komponent kamdan-kam hollarda to'liq saqlanadi va ko'pincha kompensatsiyani talab qiladi.

Intensivlik masalasini quyidagi misol yaqqol ko'rsatadi. Bag'ri kuydi birligi uchun mumkin bo'lgan variantlar intensivlik shkalasi bo'yicha quyidagicha joylashadi: she was sad (past, emotsional dominant yo'qolgan) → she was deeply upset (o'rta) → her heart ached deeply (yuqori, somatik obraz heart orqali qisman saqlangan) → she was heartbroken (yuqori, tabiiy, lekin "yonish" obrazi yo'q). Kontekstga qarab oxirgi ikki variant adekvat hisoblanadi.

4. Tarjima strategiyalarini tanlash mezonlari

Tahlil natijalari to'rt asosiy strategiya [11; 1; 6] qo'llanishining lingvistik shartlarini aniqlash imkonini berdi (2-jadval).

2-jadval.

Somatik emotsional birliklarni uzatish strategiyalari va ularning qo'llanish shartlari

Strategiya	Qo'llanish sharti	Misol	Saqlanadigan komponent
Adaptatsiya	Konseptual metafora ikki tilda mavjud, lekin boshqa obraz orqali ifodalanadi	ko'ngli tog'dek ko'tarildi → his spirits soared	dinamik, intensivlik
Modulyatsiya	Somatik obraz ingliz tilida yo'q; emotsional dominantni boshqa nuqtai nazardan berish zarur	yuragi muzlab ketdi → he froze with fear; o'pkasi to'lib ketdi → he choked up	dinamik, intensivlik
Kompensatsiya	Madaniy-assotsiativ yoki somatik komponent yo'qoladi; uni kuchaytiruvchi vosita, ritm yoki kontekst orqali tiklash mumkin	ich-etini yeb tugatdi → he was consumed with grief, day after day	intensivlik, qisman madaniy
Pragmatik ekvivalentlik	Birlik dialogda yoki dramatik cho'qqida qo'llangan; o'quvchi reaksiyasi ustuvor	yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi → she wanted the ground to swallow her up	pragmatik ta'sir

Bu natijalar asosida strategiyani tanlashning quyidagi ketma-ketligi taklif etiladi: avval birlikning emotsional dominanti aniqlanadi; so'ng uning konseptual asosi ingliz tilida mavjudligi tekshiriladi; mavjud bo'lsa - adaptatsiya, mavjud bo'lmasa - modulyatsiya qo'llanadi; yo'qolgan komponent matnning boshqa joyida kompensatsiya qilinadi; nihoyat, natija target o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha baholanadi [18]. Ushbu ketma-ketlikning eng muhim tamoyili - emotsional intensivlikni hech qachon qurbon qilmaslik: obrazni yo'qotish ba'zan muqarrar, ammo intensivlikning pasayishi asliyatning badiiy ta'sirini buzadi.

Alohida ta'kidlash joizki, mashina tarjimasi tizimlari somatik birliklarni ko'pincha so'zma-so'z (bag'ri kuyib ketdi → her chest burned) yoki neytral (ko'ziga yosh qalqdi → tears appeared in his eyes) tarzda beradi [18]. Bu holat tarjimon tomonidan post-tahrir jarayonida aynan yuqorida ajratilgan to'rt komponentni tekshirish zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa.

O'zbek va ingliz tillarida emotsiyalarni tana orqali konseptuallashtirish ikki xil modelga asoslanadi: o'zbek tilida emotsiyalar yurak, bag'ir, o'pka, ich-et va kvazisomatik ko'ngil bo'ylab taqsimlangan, ingliz tilida esa heart atrofida markazlashgan bo'lib, kuchli holatlar ko'proq bevosita psixologik leksemalar orqali ifodalanadi.

Ikki til QAYG'U - OG'IRLIK, QUVONCH - YUQORIGA HARAKAT, G'AZAB - OLOV kabi universal konseptual metaforalarga tayanadi; tafovut metaforaning qaysi a'zo orqali va qanday obrazlilik bilan voqelanishida namoyon bo'ladi.

O'zbek somatik emotsional birliklari ko'pincha bir nechta emotsional semani birlashtiradi; tarjimada yo'qotish darajasi birlikning konseptual asosi universal yoki milliy ekanligiga bog'liq.

Tarjimada yo'qolishi mumkin bo'lgan to'rt komponent - obraz-somatik, dinamik, emotsional-intensivlik va madaniy-assotsiativ komponentlar ajratildi. Ulardan emotsional intensivlikning saqlanishi tarjima adekvatligining asosiy mezoni hisoblanadi.

Adaptatsiya, modulyatsiya, kompensatsiya va pragmatik ekvivalentlik strategiyalarini tanlash birlikning konseptual asosi va matndagi funksiyasiga bog'liq; taklif etilgan tanlash ketma-ketligi o'zbek badiiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish, mashina tarjimasini post-tahrir qilish hamda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Chog'ishtirma tilshunoslik" fanlarini o'qitishda qo'llanishi mumkin.

Kelgusida tadqiqotni o'zbek nasriy asarlari va ularning nashr etilgan ingliz tarjimalari asosidagi parallel korpus materialida davom ettirish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2018.

[2] Fehr B., Russell J.A. Concept of emotion viewed from a prototype perspective // Journal of Experimental Psychology: General. – 1984. – Vol. 113, No. 3. – P. 464–486.

[3] Jakobson R. Linguistics and Poetics // Style in Language / ed. by T.A. Sebeok. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960. – P. 350–377.

[4] Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

[5] Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.

[6] Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964.

[7] Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

[8] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

[9] Oatley K., Johnson-Laird P.N. Towards a cognitive theory of emotions // Cognition and Emotion. – 1987. – Vol. 1, No. 1. – P. 29–50.

[10] Sharifian F., Dirven R., Yu N., Niemeier S. (eds.) Culture, Body, and Language: Conceptualizations of Internal Body Organs across Cultures and Languages. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2008.

[11] Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1995.

[12] Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

[13] Pragglejaz Group. MIP: A method for identifying metaphorically used words in discourse // Metaphor and Symbol. – 2007. – Vol. 22, No. 1. – P. 1–39.

[14] House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. – London: Routledge, 2015.

[15] Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

[16] Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

[17] O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.